



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT
INSTITUTI



МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
KARSHI ENGINEERING ECONOMIC INSTITUTE



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI



**"MOLIYANI RAQAMLASHTIRISH: YANGI
TENDENSIYALAR VA TATBIQ ETISH TAJRIBASI"**

MAVZUSIDA RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN
ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO'PLAMI
(2024-yil 22-23-noyabr)

**"ЦИФРОВИЗАЦИЯ ФИНАНСОВ: НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
И ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ"**

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
СБОРНИК НАУЧНЫХ СТАТЕЙ И ТЕЗИСОВ
(22-23 ноября 2024 г.)

**"DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND
IMPLEMENTATION EXPERIENCE"**

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES AND THESES
(November 22-23, 2024)

QARSHI-2024



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT
INSTITUTI



МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
KARSHI ENGINEERING ECONOMIC INSTITUTE



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI



**“MOLIYANI RAQAMLASHTIRISH: YANGI
TENDENSIYALAR VA TATBIQ ETISH TAJRIBASI”**
MAVZUSIDA RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN
ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO'PLAMI
(2024-yil 22-23-noyabr)

**"ЦИФРОВИЗАЦИЯ ФИНАНСОВ: НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
И ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ"**
РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
СБОРНИК НАУЧНЫХ СТАТЕЙ И ТЕЗИСОВ
(22-23 ноября 2024 г.)

**“DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND
IMPLEMENTATION EXPERIENCE”**
REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES AND THESES
(November 22-23, 2024)

Moliyani raqamlashtirish: yangi tendensiyalar va tatbiq etish tajribasi. – Qarshi: «Intellect» nashriyoti, 2024 yil. 968 bet.

Mas'ul muharrir: iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Omanov R.F.

Tahrir hay'ati: i.f.n., dotsent Yakubova Sh.Sh., i.f.n., prof. Ro'ziyev Z.I., i.f.f.d. (PhD), dotsent Samiyev S.I., i.f.f.d. (PhD), dotsent Iskandarov A.M., i.f.f.d. (PhD), dotsent Babaxanov J.M.

Taqrizchilar:

Xamrayeva S.N. – i.f.d., professor, QarMII

Ochilov A.O. – i.f.d., professor, QarshiDU

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 21 noyabrda PQ-4022 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 29-oktyabrda PF-6097-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyulda PQ-200 qarori, hamda "2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda PF-60-sonli Farmoyishida qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, iqtisodiyotni, ayniqsa moliya va moliyaviy texnologiyalarni raqamlashtirishi sharoitida xavfsizlikni ta'minlash, moliya, soliq, bank, sug'urta va boshqa ilg'or moliyaviy texnologiyalarga asoslangan operatsiyalarni tatbiq etish muammolari va ilmiy-amaliy yechimlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligini oshirish yuzasidan, respublika yetakchi olimlarining tajribalari bilan o'zaro fikr almashildi, mamlakatning rivojlanish darajasi va moliyani raqamlashtirish muammolarini yechish va innovatsion texnologiyalar asosida ushbu jarayonni tashkil etishning muayyan tamoyillarini shakllantirgan o'ziga xos tomonlari o'rganib, muhokama qilindi. Sohada moliyani raqamlashtirishdagi muammolarni hal qilish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar tayyorlandi.

Ushbu to'plamning chop etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining ilm-fan sohasidagi farmonlari, qarorlari ijrosini amalga oshirishga bag'ishlangan. Taqdim etilayotgan to'plam iqtisodiyot sohasi, shu jumladan bank, moliya, soliq, sug'urta va oliy ta'lim mutaxassislari hamda keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

Mazkur to'plam muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2024 yil "____" _____dagi №____-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

To'plamdagi maqola va tezislarga kiritilgan statistik raqamlar, ma'lumotlar va maqola saviyasi uchun mualliflar mas'uldir.

© Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 2024

Цифровизация финансов: новые тенденции и опыт внедрения –
Карши: Издательство «Intellekt», 2024 г. 968 стр.

Ответственный редактор: к.э.н., доцент Оманов Р.Ф.

Редколлегия: к.э.н., доцент Якубова Ш.Ш., к.э.н., проф. Рузиев З.И.,
д.ф.э.н. (PhD), доцент Самиев С.И., д.ф.э.н. (PhD), доцент Искандаров А.М.,
д.ф.э.н. (PhD), доцент Бабаханов Ж.М.

Рецензенты:

Хамраева С.Н. – д.э.н., проф. Каршинский ИЭИ
Очилов А.О. – д.э.н., проф. Каршинского ГУ

Исходя из задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», постановлениях Президента Республики Узбекистан от 21 ноября 2018 года № ПП-4022 «О мерах по дальнейшей модернизации цифровой инфраструктуры в целях развития цифровой экономики», от 4 июля 2023 года № ПП-200 «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере высшего образования, науки и инноваций в рамках административных реформ» проведена республиканская научно-практическая конференция. В данном сборнике конференции рассматриваются вопросы обеспечения безопасности в условиях цифровизации экономики, особенно финансов и финансовых технологий, проблемы и научно-практические решения по внедрению операций, основанных на передовых финансовых технологиях (финтех), таких как финансы, налоги, банковское дело, страхование и другие, а также вопросы повышения качества и эффективности научно-исследовательских работ. В ходе подготовки сборника состоялся обмен опытом с ведущими учеными республики, были изучены и обсуждены особенности развития страны и принципы организации процесса цифровизации финансов на основе инновационных технологий. Подготовлены научные выводы и предложения по решению проблем цифровизации финансов в данной области.

Сборник предназначен для специалистов в области экономики, в том числе банковского дела, финансов, налогообложения, страхования, высшего образования, а также для широкой общественности.

Сборник рекомендован к изданию решением Совета Каршинского инженерно-экономического института № _____ от _____ 2024 года.

Авторы несут ответственность за статистику, данные и уровень статьи, включенные в статьи и тезисы в сборнике.

© Каршинский инженерно-экономический институт, 2024

-
5. Batu, Ali and Regenstein, Joe. (2014). Halal Food Certification Challenges and Their Implications for Moslem Societies Worldwide. International Periodical for The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic, Vol. 9: 111–130.
6. Omar, S and Zahrain, M. (2012). Positioning The Halal Food Industry : The Case of Malaysia. NIDA Case Research Journal, Vol. 4(8): 157–174.
7. <https://www.salaamgateway.com>
8. <https://www.researchandmarkets.com>
9. <https://www.persistencemarketresearch.com/market-research/halal-food-and-beverage-market.asp>

O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHNING O'ZIGA XOS INNOVATSION YO'NALISHLARI

Musulmonova Shahlo Nasriddinovna

Buxoro davlat universiteti, musulmonovasahlo2gmail.com

Annotatsiya: Bu tezis kambag'allikni qisqartirishda turli sohalardagi innovatsiyalar va texnologik yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlaydi va ushbu yo'nalishdagi amaliy qadamlar haqida tavsiyalar beradi. Kambag'allikni qisqartirish uchun innovatsion yondashuvlar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tezlashtirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Kali so'zlar: mobil banking va fintech, blokcheyn, raqamli savodxonlik, kraudfanding, raqamli texnologiyalar

Аннотация: В данной диссертации подчеркивается важность инновационных и технологических подходов в различных областях сокращения бедности и рекомендуются практические шаги в этом направлении. Инновационные подходы к сокращению бедности могут сыграть важную роль в ускорении экономического и социального развития общества.

Ключевые слова: мобильный банкинг и финтех, блокчейн, цифровая грамотность, краудфандинг, цифровые технологии.

Abstract: This thesis highlights the importance of innovation and technological approaches in various fields in poverty reduction and recommends practical steps in this direction. Innovative approaches to poverty reduction can play an important role in accelerating the economic and social development of a society.

Keywords: mobile banking and fintech, blockchain, digital literacy, crowdfunding, digital technologies

Kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida har qanday jamiyatga xosdir va ko'p qirrali muammodir. Kambag'allikning tarqalishini cheklash, birinchi navbatda, eng xavfli, surunkali shaklda, nafaqat ijtimoiy sabablarga ko'ra, balki kelajak avlodlarning jismoniy, mehnat, intellektual salohiyatini saqlash va yaxshilash nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Kambag'allikni qisqartirish borasida mamlakatimizda yaqin yillarda juda ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu narsani tan olib aytish lozimki, kambag'allik juda chuqur muammo bo'lganligi sababli uning yechimi ham uzoq vaqt, harakat talab qiladi. Kambag'allikni har bir fuqaroning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga individual yondashgan holda bartaraf etish mumkin. Bu borada bajarilgan ishlarining ko'lami keng va ularga qo'shimcha ravishda kambag'allikni qisqartirishning innovatsion yo'llari bajarilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Quyida ushbu usullarning eng samarali yo'llari keltirib o'tamiz.

1. Raqamli texnologiyalarni joriy qilish.

a) Mobil banking va fintech ilovalari:

Mobil banking va fintech (moliyaviy texnologiyalar) kambag'al aholi uchun moliyaviy xizmatlarga osonroq kirish imkoniyatini beradi. Bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan hududlarda mobil banklar va elektron to'lov ilovalari orqali foydalanuvchilar o'z mablag'larini boshqarishi, xaridlarni amalga oshirishi va hatto kichik biznes ochishi mumkin. Bu usul kambag'al aholini rasmiy moliyaviy tizimga jalb qilib, ularga mablag' boshqarish imkonini beradi. Bunda mobil telefonlar, internet va fintech xizmatlari asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

b) Blokcheyn texnologiyasi:

Blokcheyn texnologiyasi kambag'allikni qisqartirishda shaffoflik va ishonchni ta'minlash imkonini beradi. Masalan, kambag'al hududlardagi aholining mulk huquqlarini isbotlashda hujjatlarni soxtalashtirish yoki korrupsiyani kamaytirish maqsadida blokcheyn texnologiyasi orqali ularning mulk huquqlarini raqamlashtirish mumkin. Bu, shuningdek, kambag'al aholini firibgarlikdan himoya qilib, ularga mulkni himoya qilish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi.

2. Ta'limni raqamlashtirish va kengaytirish

a) Onlayn ta'lim platformalari:

Onlayn ta'lim kambag'al aholiga sifatli ta'lim olish imkonini beradi. Ko'plab onlayn platformalar (Coursera, edX, Khan Academy va boshqalar) bepul yoki arzon narxlarda darslar va kurslar taklif qiladi. Bu platformalar kambag'allarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, ularni yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash yoki ularning malakasini oshirish orqali daromadlarini oshirish imkoniyatini yaratadi.

b) Raqamli savodxonlikni oshirish:

Raqamli savodxonlik — internet va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatish — kambag'allar uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Bu ularning moliyaviy xizmatlardan, ta'limdan va sog'liqni saqlashdan foydalana olishiga yordam beradi, shuningdek, internet orqali ishlash yoki o'z mahsulotlarini sotishga imkon beradi.

3. Ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash

a) Ijtimoiy tadbirkorlik:

Ijtimoiy tadbirkorlik kambag'al aholiga bevosita xizmat ko'rsatishga qaratilgan biznes modellarini rivojlantirish orqali ijtimoiy muammolarni hal qiladi. Masalan, ijtimoiy tadbirkorlar kambag'allarni qishloq xo'jaligida, qo'l mehnatida yoki xizmatlar sohasida ish bilan ta'minlab, ularga malaka va daromad olish imkonini beradi. Ushbu tadbirkorlik yondashuvi kambag'al jamiyatlar hayot sifatini yaxshilashni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

b) Mikro kreditlash dasturlari:

Mikrokreditlar kichik biznes boshlash uchun yetarli bo'lmagan mablag'larga ega bo'lgan kambag'al aholi uchun maxsus tashkil qilingan kreditlar. Ushbu tizim kambag'allarni kichik kreditlar bilan ta'minlab, ularga biznes boshlash va daromad topish imkoniyatini beradi. Mikrokredit dasturlari ayniqsa qishloq va rivojlanayotgan hududlarda keng qo'llaniladi, chunki u yerda an'anaviy banklar kam va mikrokreditlar kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. startaplarni rivojlantirish kambag'allikni kamaytirishda samarali usul hisoblanadi. Innovatsion mikro-moliyaviy xizmatlar kambag'al qatlamga investitsiyalarni jalb etish va biznesni boshlashda yordam beradi. Shu bilan birga, kraudfanding va venchur kapitali kabi moliyalash usullari orqali ham kambag'al qatlamlarning tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

4. Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni qo'llash

a) Aqlli qishloq xo'jaligi:

Aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalari (IoT, sun'iy intellekt, drone va h.k.) mahsulotlarni yetishtirishni samarali boshqarishga yordam beradi. Masalan, IoT (Internet of Things) texnologiyalari suv ta'minoti va o'g'itlanishni aniq kuzatish va boshqarish imkonini beradi, bu esa resurslarni tejamli ishlatishga va hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi. Natijada, kambag'al fermerlar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidan barqaror daromad oladi.

b) Raqamli xizmatlar:

Fermerlar raqamli ilovalar orqali bozorlardagi narxlar, ob-havo sharoitlari va texnologik yangiliklar haqida ma'lumot olishlari mumkin. Bu ularning mahsulotlarini samarali sotishiga va hosilni maksimal foyda bilan realizatsiya qilishiga yordam beradi.

5. Zamonaviy sog'liqni saqlash xizmatlarini joriy qilish

a) Telemeditsina:

Telemeditsina texnologiyasi orqali qishloq va olis hududlardagi aholi masofaviy tibbiy xizmatlardan foydalana oladi. Bu ularga zarur tibbiy maslahatlar va davolash xizmatlarini olishda katta yordam beradi, ayniqsa, shifokorlar yetishmayotgan hududlarda. Mobil ilovalar va internet orqali bemorlar va shifokorlar o'rtasida tezkor muloqot ta'minlanadi.

b) Sun'iy intellekt yordamida tibbiyot:

Sun'iy intellekt (AI) yordamida diagnostika va davolash jarayonlari samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, sun'iy intellekt tahlillari qishloq hududlarida o'tkazilgan tibbiy ko'riklar natijalarini tez va aniq tahlil qiladi. Bu kambag'al hududlarda sog'liqni saqlash tizimlarining arzon va samarali ishlashini ta'minlaydi.

6. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish dasturlari

a) Yashil texnologiyalar:

Barqaror rivojlanish dasturlari va yashil texnologiyalar kambag'allikka qarshi kurashda yordam beradi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kambag'al mintaqalarda yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkonini beradi. Masalan, quyosh energiyasi yoki shamol energiyasini ishlatish orqali kambag'al hududlarda energiya resurslarini arzon va barqaror manbalardan olish imkoniyati yaratiladi.

b) Barqaror qishloq rivojlanishi:

Ekologik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish orqali kambag'al fermerlar nafaqat o'z mahsulotlarini sotish imkoniyatini oshiradi, balki barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish orqali mahsulotlarining bozor narxini ham oshiradi.

7. Taraqqiyotga yordam dasturlari

a) Ijtimoiy himoya tizimlari:

Innovatsion ijtimoiy himoya dasturlari kambag'allikni maqsadli ravishda kamaytirishga xizmat qiladi. Masalan, davlat tomonidan taqdim etiladigan nafaqa yoki grantlar orqali kambag'al qatlamlar o'z iqtisodiy faoliyatlarini rivojlantirishi yoki asosiy ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Innovatsion dasturlar ijtimoiy xizmatlarni shaffof va samarali taqsimlashga yordam beradi.

8. Uy-joy va infratuzilma rivojlanishi:

Innovatsion arzon uy-joy loyihalari va shahar infratuzilmasini rivojlantirish kambag'al aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi. Shu jumladan, turar-joy kreditlari va ijara xizmatlarida innovatsiyalarni kiritish orqali kambag'allar uchun uy-joy masalalarini hal etish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kambag'allikni qisqartirishga innovatsion yondashuvning mohiyati — bu an'anaviy usullardan farqli ravishda zamonaviy texnologiyalar, yangi biznes modellar va ilg'or iqtisodiy siyosatlar orqali kambag'allik muammolarini hal qilishdir. Innovatsion yondashuvlar kambag'al aholi qatlamlariga nafaqat yordam ko'rsatish, balki ularni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Bu yondashuvlar kambag'allikni qisqartirishda nafaqat moddiy resurslar, balki intellektual va texnologik vositalarni ham jalb qilish orqali muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Har bir innovatsion usul qashshoqlik darajasini kamaytirishga, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bu afzalliklar kambag'allikka qarshi kurashda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini oshiradi va ular kambag'allikning chuqur ildizlarini yengish, aholini iqtisodiy tizimga jalb qilish hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. P.K., Shajahan., Dipannita, Bhattacharjee. (2023). 2. Social innovation and poverty and marginalization. doi: 10.4337/9781800373358.ch45

2. Muradiye, Ates. (2023). Yoksullukla Mücadele Etmede ve Sürdürülebilir Kalkınmaya Ulaşmada Sosyal İnovatif Uygulamaların Rolü. Ankara hacı bayram veli Üniversitesi İktisadi ve İdari bilimler fakültesi dergisi, doi: 10.26745/ahbvuibfd.1259836
3. (2022). 5. A Crosschain-Based Fair Exchange of Products For Poverty Alleviation. doi: 10.1109/iccwamt56608.2022.10016552
4. Joanne, Fairley. (1998). 19. New Strategies for Microenterprise Development: Innovation, Integration, and the Trickle Up Approach. Journal of International Affairs,
5. Shahlo M., Aziza T. External Labor Migration and Informal Employment: Situation, Problems and Their Causes //European Journal Of Business Startups And Open Society. – 2023. – T. 3. – №. 12. – C. 45-50.
6. Shahlo M., Aziza T. Poverty as a Socio-Economic Category //European Journal Of Innovation In Nonformal Education. – 2023. – T. 3. – №. 12. – C. 27-31.
7. Nasriddinovna M. S. SPECIAL DIRECTIONS OF POVERTY REDUCTION IN THE REGIONS //International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2024. – T. 12. – №. 3. – C. 847-852.
8. Musulmonova, S. (2024). Mintaqalarda kambag'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari.

190.	Aliev M.K. Aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini takomillashtirish	859
191.	Aliev M.K. Ijtimoiy ta'minot tizimini rivojlantirish istiqbollari	861
192.	Eshqobilova N. Transport-logistika xizmatlari samardorligini aniqlashning xorij tajribasi va uni o'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari	863
193.	Farmanov J.Z. Asalarichilikning qishloq xo'jaligida tutgan o'rni hamda tarmoq tarixi	869
194.	Оптиков Э.Я. Дивидендлар аудитида тахлилий амаллардан фойдаланиш	873
195.	Berdiyev J. Mintaqada mehmonxona xo'jaligida rentabellikni oshirish imkoniyatlari	879
196.	Тайлакова Д.Б. Этапы формирования сферы услуг в развитии зеленой экономики	883
197.	Shukurov I.S. Fermer xo'jaliklariga servis xizmat ko'rsatish samaradorligini baholash	889
198.	Salohiddinov J., Davronov A. O'zbekistonda davlat byudjeti va uni samarali boshqarishdagi imkoniyatlar va muammolarga oqilona yechimlar	895
199.	Jamilova N.X. Kichik biznesda moliyaviy boshqaruvni soddalashtirishda yangi texnologiyalarning samarasi	899
200.	Nortojiyeva N.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kommunal xizmat ko'rsatishning takomillashuvi	909
201.	Tirkashev M.Y. Korxonalarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishda va salohiyatini yaxshilashda qimmatli qog'ozlarning ahamiyati	912
202.	Xamroyeva R. Byudjet defitsiti va uni kamaytirish strategiyalari	915
203.	Rajabov O.R. Moliya sohasida malakali kadrlar tayyorlash iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida	919
204.	Saitqulova M.A. Raqamlashtirish sharoitida malakali kadrlar tayyorlash va ularni o'qitish	923
205.	Мансуралиева К.Р. Совершенствование подготовки управленческих кадров для цифровой экономики	928
206.	Tulkinova L.A. Enhancing the audit of internal control systems in economic entities: a framework for effective assurance and risk management	933
207.	Qarshiboyeva N.O., Axrorov Z.O. O'zbekistonda halol oziq ovqat mahsulotlari bozori imkoniyatlari	944
208.	Musulmonova Sh.N. O'zbekistonda kambag'allik darajasini pasaytirishning o'ziga xos innovatsion yo'nalishlari	951